

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**SAIDMURODOV FERUZ SODIQJON O‘G‘LI**

**TRANSPORT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание  
учёной степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Table of Contents of the Dissertation Abstract for the Degree  
of Doctor of Philosophy (PhD) in Economics**

**Saidmurodov Feruz Sodiqjon o‘g‘li**

Transport tizimining iqtisodiy samaradorligimi oshirish yo‘llari ..... 3

**Сайдмуродов Феруз Содикжон угли**

Пути повышения экономической эффективности транспортной  
системы ..... 27

**Saidmurodov Feruz Sodiqjon ugli**

Ways to Improve the Economic Efficiency of the Transport System ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of Published Works ..... 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**SAIDMURODOV FERUZ SODIQJON O‘G‘LI**

**TRANSPORT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.3.PhD/Iqt1502 raqam bilan ro‘yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

**Shakirova Farog‘at Boltayevna**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

**Karriyeva Yoqutxon Karimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Shavkat Vasiyevich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “10” 31 kuni soat 10:00 dari majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-41-23. E-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1780 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “10” 17 kuni tarqatildi.

(2025 yil “10” 17 dari 31 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., professor

T.S. Qo‘chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida transport tizimi global iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda, milliy bozorlarning raqobatbardoshligini oshirishda va resurslarning oqilona taqsimlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, “transport sohasining samaradorligi iqtisodiy o'sishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi transport xizmatlarining ulushi rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha 8-12% atrofida shakllanmoqda. AQSH va Germaniyada bu ko‘rsatkich mos ravishda 8,5% va 9,2% ni tashkil etmoqda”<sup>1</sup>. Bu borada transport infratuzilmasining rivojlanganligi va samarali faoliyat ko‘rsatishi nafaqat sanoat mahsulotlarining o‘z vaqtida yetkazilishini, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ta’minti va tashqi savdo hajmining ortishini ta’minlaydi. Xususan, Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, “transport infratuzilmasi sifati bo‘yicha yuqori darajaga erishgan mamlakatlar, Singapur (4,3 ball), Germaniya (4,2 ball) va Yaponiya (4,2 ball) kabilarda logistika samaradorlik indeksi (LPI – Logistics Performance Index) bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham yuqori darajada kuzatiladi”<sup>2</sup>. Shu bilan birga, transport infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotga nisbati (trade-to-GDP ratio) 80-120% dan yuqorini tashkil etayotgani qayd qilinmoqda. Bu esa transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq etishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahon miqyosida transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar asosan logistika jarayonlarini optimallashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Ustuvor yo‘nalishlar qatorida intellektual transport tizimlarini (ITS) rivojlantirish, “yashil transport” va barqaror logistika modellarini ishlab chiqish, energiya tejamkor va ekologik toza transport turlarini keng qo‘llash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda transport koridorlarini integratsiyalash va mintaqaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, elektron tijoratning o‘sishi sharoitida logistikani samarali tashkil etish hamda yirik shaharlarda intellektual harakatlanish modellarini joriy qilish masalalari ilg‘or yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bundan tashqari, transport samaradorligini baholashda “time-cost-distance” indikatorlaridan foydalanish va uni global savdo jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida transport tizimini kompleks rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini yuksaltirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida transport sohasining iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va

<sup>1</sup> World Bank (2023). Transport Services and Economic Growth: Global Indicators and Trends, World Bank Annual Report. Washington DC. 2023 yil. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org).

<sup>2</sup> World Bank Logistics Performance Index (2023). Logistics Performance Index Ranking Report. The World Bank Group, 2023 yil. [www.lpi.worldbank.org](http://www.lpi.worldbank.org).

samaradorlikni oshirishga oid qator aniq vazifalar belgilangan. Jumladan, strategiyada temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, transport-logistika xizmatlari bozorini sifat va ko‘lam jihatidan kengaytirish, tashqi savdo hamda tranzit tashuvlar hajmini oshirish maqsadida “yashil koridorlar” tizimini shakllantirish va tranzit yuk tashish ko‘rsatkichini 15 million tonnadan oshirish kabi aniq maqsadlar belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlash esa transport tizimining iqtisodiy samaradorligi hamda milliy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun fundamental shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti uchun muhim strategik vazifa bo‘lib, bu vazifani hal qilish uchun sohaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirish, zamonaviy innovatsion va texnologik yechimlarni keng joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrdagi PF-213-son “O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 15-fevraldagi PQ-88-son “Yo‘l transporti sohasini raqamlashtirish va ekotransport loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari soha maktabi vakillari hisoblangan P.Romer, R.Xarrod, Ye.Domar, D.Xemberg, R.Solow, Y.Shumpeter, V.Rostou tomonidan o‘rganilgan<sup>3</sup>. Lekin mazkur tadqiqotlar fundamental tavsif kasb etib, masalaga umumiylashtirish yondashilgan va aynan temir yo‘l tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish muammolari o‘rganilmagan.

MDH olimlaridan ushbu sohada I.Belov, G.Bubnova, G.Vovk, V.Galaburda, O.Efimova, A.Zaysev, A.Kaplan, R.Kojevnikov, V.Kozirev, V.Kolesnikov, B.Lapidus, L.Leviskaya, B.Lyovin, B.Anikin, E.Gagarskiy, V.Gerami, V.Dibskaya, A.Kirillova, A.Kolik, P.Kurenkov, E.Mamayev, L.Mirotin, V.Morgunov, D.Novikov, V.Sergeyev, L.Fyodorov va boshqalar tomonidan mintaqalarning texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

<sup>3</sup> Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71 – S102.; Домар Е. «Очерки по теории экономического роста»-М.: МЭ и МО, 1956 г.; Хемберг Д. «Ранняя теория роста: модели Домара и Харрода». Современная экономическая мысль. Серия «Экономическая мысль Запада» / Под ред. С. Вайнтрауба, В.С. Афанасьева, Р.М. Энгела. М.: Прогресс, 1981; Solow, R. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94. <https://doi.org/10.2307/1884513>; Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.; Rostow W. Politics and the Stages of Growth. 1971.

kompleksining iqtisodiy samaradorligim oshirish masalalari chuqur o'rganilgan va izohlangan<sup>4</sup>.

O'zbekiston olimlaridan G.Samatov, M.Ikramov, K.Uldjaboev, Y.Qorrieva, A.Shermuxamedov, K.Ziyadullaev, M.Irisbekova, A.Zohidov, A.Gulamov, V.Yarashova va J.Fayzullayev va boshqalar mamlakat transport tizimini samarali rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratganlar<sup>5</sup>. Shuningdek, transport kommunikatsiyalari muammolarini siyosiy fanlar kesimida tadqiq etgan tadqiqotchilar qatoriga J.Artikov, I.Qodirov, R.Sarbaev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan<sup>6</sup>.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarda transport tizimini boshqarish mexanizmi muammolari, uning makroiqtisodiy jihatlari va temir yo'l transporti korxonalarining asosiy kapitalini iqtisodiy nuqtai nazardan baholashda metodologik yondashuvlar tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda temir yo'l transport tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish masalalari, transport va logistika sohalarini yagona tizim sifatida o'rganish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shuningdek, transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, transport tarmog'ining rivojlanish jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilash, uning samaradorlik va rivojlanish darajasini baholash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish ilmiy doiralar oldida turgan ilmiy muammolardan hisoblanadi.

<sup>4</sup> Белов, И. В. Математические методы в планировании на железнодорожном транспорте: учебник для вузов ж.-д. трансп. И. В. Белов, А. Б. Каплан. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Транспорт, 1972. – 248 с: а-ил.; Бубнова, Г. В. Логистическое взаимодействие компаний-операторов при организации вагонопотоков по экономическим критериям. Г. В. Бубнова, А. А. Ерофеев, П. Г. Коренев // Экономика железных дорог. – 2012. №10. С-85.; Вовк, А. А. Развитие системы показателей использования подвижного состава.; А А. Вовк, В.Б. Литовченко // Экономика железных дорог. 2014. № 2. С-76-79; Галабурда, В. Г. Единая транспортная система: Учеб. для вузов / В.Г. Галабурда, В.А. Персианов, А. А. Тимошин [и др.] ; под ред. В. Г. Галабурды. – 2-е изд. с измен.и дополн. – М.: Транспорт, 2001. – 303-с.; Ефимова, О. В. Экономические критерии управления вагонным парком / О.В. Ефимова, Е. Б. Бабошин, Б.В. Игольников // Экономика железных дорог. 2012. №5. С-46.:

<sup>5</sup> Саматов Ф.А. ва бошқалар. Рақобат муҳитида ҳалқаро транспорт тизими фаолиятининг логистик ишончлилиги. – Т.: ТошДАУ нашр таҳририяти бўлими, 2003. – 82 б; Икрамов М.А. Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути // Экономическое возрождение России, №4, 2010. –С. 28-36; Ульджабоев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте – Тошкент, «Мехнат», 1999г.; Қорриэва Я.К. Ўзбекистоннинг жаҳон бозорига чиқиши учун ҳалқаро йўллаклардан самарали фойдаланишнинг логистик транспорт муаммолари. Икт. фан. док. ... дис. автореф., Тошкент 2004; Шермухамедов А.Т. Великий шелковый путь и транспортные перевозки. ФРГ. – Берлин: Изд. ЛАП, 2012. - 90 с; Шермухамедов А.Т. Великий шелковый путь и современные автомагистрали. // Экономика и статистика. №6, 2005; Зиядуллаев К.Ш. Интеграция транспортных коммуникатсий Республики Узбекистан в международную транспортно-коммуникационную систему // Современные методы организации бизнеса и маркетинга: Межвузовский сборник. –СПб.: СЗТУ, 2005. –С. 101-106.; Ирисбекова М.Н. Маркетинг тамоиллари асосида транспорт хизматлари бозорини оптималлаштириш. Икт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2017; Зоҳидов А.А. Марказий Осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Икт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018. Гуламов А.А. Темир йўл компаниясининг асосий капиталини иқтисодий жиҳатдан баҳолаш методологиясини такомиллаштириш («Ўзбекистон темир йўллари» АЖ мисолида); Ярашова В.К. Ўзбекистон транспорт тизимини ривожлантиришнинг мақроқтисодий жиҳатлари. Икт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2022; Файзулаев Ж.С. Темир йўл транспорт тизимини иқтисодий ривожлантириш методологиясини такомиллаштириш. Икт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2022.

<sup>6</sup> Артиков Ж.Ю. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва трансқоммуникация муаммолари. Сиёсий фан. ном. ... дис. автореф. -Тошкент, 2005; Кодиров И. Ўзбекистон Республикаси транспорт дипломатияси: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Сиёсий фан.ном. ... дис. автореф. Тошкент, 2005; Сарбаев Р.М. Развитие транспортных коммуникаций Центральной Азии как важный фактор региональной безопасности.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-38 “Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro logistikani rivojlantirish” mavzusidagi (2017-2021 yy.) amaliy-ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

temir yo‘l va avtomobil transporti iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimini tadqiq etish;

dunyo transport tizimining rivojlanish tendensiyalari va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish;

O‘zbekiston transport tizimining iqtisodiy samaradorligi va rivojlanish tendensiyalari tahlilini olib borish;

transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy takliflar ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklik asosida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar berish;

transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarinig prognoz variantlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston avtomobil va temir yo‘l transportining iqtisodiy faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib transport tizimini samarali rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, funksional va tarkibiy baholash, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, dinamik va statik, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqot ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “transport sohasida iqtisodiy samaradorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning raqobat ustunligini oshirish va bozorda barqaror pozitsiyalarni egallash orqali xizmat sifatini va logistika jarayonlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

transport tizimining amaldagi holatini “me’yoriy holat” (o‘sish va barqaror rivojlanishga mos), “inqiroz oldi holati” (hushyorlikni talab etuvchi holat) va “inqiroz holati” (tezkor islohotlar zarur bo‘lgan holat) ko‘rinishida tavsiflash orqali resurslar taqsimoti, investitsiya siyosatini yo‘naltirish va tarmoqdagi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratuvchi Z-score natijsasi orqali belgilangan;

transport tizimining iqtisodiy samaradorlik indeksini baholash uslubi me’yorashtirilgan qiymat va vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda “zarar holati” (0,00-0,19), “past samaradorlik” (0,20-0,39), “o‘rtacha samaradorlik”

(0,40-0,59), “iqtisodiy barqaror samaradorlik” (0,60-0,79), “strategik samaradorlik” (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda transportga kiritilgan investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar va yuk aylanmasi hamda yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida ular dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

iqtisodiy va tashkiliy omillarning ta’sir darajasini aniqlash hamda samaradorlik indikatorlarining me’yoriy, inqiroz oldi va inqiroz holati qiymatlarini belgilash orqali transport tizimida iqtisodiy inqiroz holatlarini oldindan prognozlash, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli choralarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

transport tizimi iqtisodiy samaradorligi darajasini takomillashtirilgan integral indeks mezonlari asosida baholash orqali sohada past va o‘rtacha samaradorlik holatlarini aniqlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini ta’minlangan;

transport sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi investitsiyalar jalb qilish, xarajatlar nazoratini kuchaytirish va tarif siyosati shaffofligini oshirishga yo‘naltirilgan normativ va myetodik asoslari takomillashtirilgan;

transport sohasida prognozlashning integratsiyalashgan iqtisodiy modeli asosida tarmoqqa investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar, yuk va yo‘lovchi aylanmalari ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari asoslanib, sohaning barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi istiqbolli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda strategik boshqaruv tizimini shakllantirish imkonini yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi, ishlab chiqilgan modellarning amaliyatga joriy etilganligi, olingan natijalarining transport tarmog‘iga vakolatli tashkilotlaridan o‘tganligi va tasdiqlanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tizimini iqtisodiy samaradorligini baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, transport-tranzit va tarif tizimi rivojlantirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tarmoq va hudud dasturlarini ishlab chiqish, soha faoliyatini rejalashtirish, samarali tashkil etish, transport tizimi istiqbollarini belgilash hamda “Transport iqtisodiyoti”, “Temir yo‘l transport korxonalari iqtisodiyoti”, “Transport korxonalarini rivojlantirish” fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijadarini amaliyatga joriy etilishi.** Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “transport sohasida iqtisodiy samaradorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida

mahsulotlarning raqobat ustunligini oshirish va bozorda barqaror pozitsiyalarni egallash orqali xizmat sifatini va logistika jarayonlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirish borasidagi nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan (Toshken davlat transport universtiteti rektorining 2024-yil 28-oktyabrdagi “292-U” sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida talabalarda ishlab chiqarish va transport sohalarida samaradorlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkonini yaratilgan;

transport tizimining amaldagi holatini “me’yoriy holat” (o‘sish va barqaror rivojlanishga mos), “inqiroz oldi holati” (hushyorlikni talab etuvchi holat) va “inqiroz holati” (tezkor islohotlar zarur bo‘lgan holat) ko‘rinishida tavsiflash orqali resurslar taqsimoti, investitsiya siyosatini yo‘naltirish va tarmoqdagi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratuvchi Z-score natijasi orqali belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyatga joriy etilishi natijasida sohadagi iqtisodiy inqiroz holatlarini barvaqt aniqlash va inqirozga qarshi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qabul qilish imkonini yaratilgan;

transport tizimining iqtisodiy samaradorlik indeksini baholash uslubi me’yorlashtirilgan qiymat va vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda “zarar holati” (0,00-0,19), “past samaradorlik” (0,20-0,39), “o‘rtacha samaradorlik” (0,40-0,59), “iqtisodiy barqaror samaradorlik” (0,60-0,79), “strategik samaradorlik” (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida transport sohasi korxonalari faoliyatining samaradorlik darajasi bo‘yicha past samaradorlik holatidagi korxonalar sonini qisqartirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda sohaning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari 10-12% yaxshilash imkonini yaratilgan;

O‘zbekistonda transportga kiritilgan investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar va yuk aylanmasi hamda yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida ular dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 10-yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida transport sohasining strategik taraqqiyot yo‘nalishlarini, uzoq muddatli istiqbolda yuk aylanmasining 20-25%, yo‘lovchi aylanmasining esa 15-18%ga o‘sishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 8 ta ilmiy ishlar, shulardan OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta resaublika, 1 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalar bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida ishlab chiqarish va transport sohalarida samaradorlik tushanchalarining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Temir yo‘l va avtomobil transporti iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tarkibi hamda temir yo‘l transporti iqtisodiy samaradorlikn baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rsatib berilgan. Transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining me’yoriy, inqiroz oldi va inqiroz holati qiymatlari asoslab berilgan. Transport sohasida samaradorlikning mazmuni ikki yo‘nalishda kengayadi:

iqtisodiy manfaatlarning maksimallashuvi;

tizim samaradorligining ijtimoiy va institutsional oqibatlari.

Transport faoliyatida xarajatlarni minimallashtirish bilan bir qatorda, vaqtini tejash, logistika jarayonlarini optimallashtirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, samaradorlik tushunchasi to‘liq integral va multikriteriy yondashuvni talab etadi.

Transport tizimining samaradorligini ko‘p parametrli baholash uning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqaruvchi funksiyalarini chuqur va integral tahlil qilishni talab etadi. Amaliy tahlillarda ko‘pincha bir tomonlama - faqat iqtisodiy foyda yoki xarajatlarga asoslangan bo‘ladi, bu esa transport tizimi samaradorligining keng ko‘lamli xususiyatiga to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli, tadqiqotda transport sohasi samaradorligini to‘liq qamrab oladigan baholash yondashuvi taklif etildi. U turli yo‘nalishlardagi ko‘rsatkichlarni bir vaqtida hisobga olish va ularning ijobiy hamda salbiy ta’sir darajalarini haqiqiy munosabatda aks ettirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish va transport tizimlari iqtisodiyotda bir-birini to‘ldiruvchi, uzviy bog‘liq va tarmoqlararo ta’sirga ega tizimlar sirasiga kiradi. Ular o‘rtasidagi samaradorlik munosabatlari faqat resurs iste’moli yoki xarajatlar bilan emas, balki vaqtincha muvofiqlik, logistika tizimlari, raqamlashtirish jarayonlari va infratuzilmaning sifat darjasini orqali ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ishlab chiqarish va transport sohalaridagi samaradorlik mezonnari hamda ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ularning o‘zaro ta’siri va mutanosibligini belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishlar tizimlashtirilgan (1-jadval).

**Ishlab chiqarish va transport sohalarida samaradorlik tushanchalarining  
o‘zaro bog‘liqligi<sup>7</sup>**

<b>№</b>	<b>Yo‘nalishlar</b>	<b>Ishlab chiqarish sohasida samaradorlik</b>	<b>Transport sohasida samaradorlik</b>	<b>O‘zaro bog‘liqlikning mazmuni</b>
1.	Resurslardan foydalanish	Xom ashyo, energiya, mehnat samarasi	Yoqilg‘i, vaqt, transport quvvatlari tejash	Ishlab chiqarish uzlusizligi transport resurslariga bog‘liq
2.	Vaqt samaradorligi	Ishlab chiqarish sikli qisqarishi	Yuk aylanma vaqt, yetkazib berish tezligi	Ishlab chiqarish vaqtiga transport yetkazib berish vaqtiga bog‘liq
3.	Ekspluatatsion samaradorlik	Uskunlardan samarali foydalanish	Yo‘llar, temir yo‘l tarmoqlarining foydalanishi	Ishlab chiqarish yuk tashish salohiyatiga bevosita bog‘liq
4.	Logistika tizimi	Tayyor mahsulot saqlash va uzatish	Terminallar, logistik uzellar ishlash tizimi	Ikkala sohada logistik uzluklar umumiy samaradorlikni belgilaydi
5.	Ijtimoiy-iqtisodiy foya	Ish o‘rinlari, hajmlar oshishi	Regionlararo bog‘liqlik, tranzit salohiyati	Ishlab chiqarish kengayishi transport infratuzilmasiga bog‘liq
6.	Raqamlashtirish va innovatsiya	Ishlab chiqarish avtomatlashuvi	Aqli logistika, GPS, onlayn monitoring	Raqamli integratsiya ikki sohada samaradorlikni oshiradi
7.	Investitsiya faolligi	Quvvatlarni kengaytirish	Yo‘llar, stansiyalar modernizatsiyasi	Transportga investitsiya ishlab chiqarish faolligini rag‘batlantiradi

Yuqorida keltirilgan ishlab chiqarish va transport sohalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniq va tizimli tarzda namoyon etib, ularda samaradorlik tushunchasi qanday shakllanishini va qanday mezonlar orqali baholanishini ochib beradi. Bunday yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, u sohalarni alohida emas, balki bir-biriga ta’sir qiluvchi, integratsiyalangan iqtisodiy mexanizm sifatida ko‘rib chiqish imkonini yaratadi. Bu esa, tadqiqotning nazariy qismida mustahkam poydevor yaratib, keyingi amaliy tahlillarda tarmoqlararo munosabatlarni chuqurroq ochib berish uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqotda transport tizimining iqtisodiy iqtisodiy samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar alohida tanlab olinib, ular uchun me’yoriy holat, inqiroz oldi holat va inqiroz holatni belgilab beruvchi aniq miqdoriy diapazonlar shakllantirildi. Har bir ko‘rsatkich uchun aniq foiz, qiymat yoki normativ asosida chegaralar belgilanib, amaldagi holatni obyektiv tahlil qilish imkonini yaratildi.

Mazkur yondashuv asosida transport tizimining holati “me’yoriy holat” (o‘sish va barqaror rivojlanishga mos), “inqiroz oldi holat” (hushyorlikni talab etuvchi holat), va “inqiroz holati” (tezkor islohotlar zarur bo‘lgan holat) ko‘rinishida tavsiflanishi mumkin. Bu nafaqat soha samaradorligini baholashni yaxshilaydi, balki resurslar taqsimoti, investitsiya siyosatini yo‘naltirish, va tarmoqdagi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratadi. Shu tariqa, quyida keltirilgan jadval har bir ko‘rsatkich uchun miqdoriy anqlik va holatni baholash mezonini ta’minlab, transport tizimidagi samaradorlikni kompleks baholash imkonini beradi (2-jadval).

<sup>7</sup> O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval

**Transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining me'yoriy, inqiroz oldi va inqiroz holati qiymatlari<sup>8</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	Me'yoriy holat	Inqiroz oldi holat	Inqiroz holat
1.	Yuk aylanmasi (mln t-km), umumiy tarmoq daromadi, xarajatlarning o'zini qoplash koeffitsiyenti	$\geq 85\ 000$ mln t-km; $\geq 110\%$ daromad; $\geq 1.0$ qoplash koeffitsiyenti	70 000 – 75 000 mln t-km; 90–110% daromad; 0.85–1.0 qopplash	$\leq 70\ 000$ mln t-km; $\leq 90\%$ daromad; $\leq 0.85$ qopplash
2.	Lokomotiv va vagon parki faolligi, yetkazib berish vaqtiga, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish darajasi	$\geq 90\%$ park faolligi; $\leq 24$ soat yetkazib berish; $\geq 80\%$ xizmat darajasi	70–90% park; 24–48 soat; 60–80% xizmat darajasi	$\leq 70\%$ park; $> 48$ soat; $\leq 60\%$ xizmat darajasi
3.	Asosiy vositalardagi eskirganlik darajasi, modernizatsiyalangan liniyalar ulushi, 1 km ta'mir uchun mablag'	$\leq 30\%$ eskirganlik; $\geq 50\%$ modernizatsiya; $\geq 200$ mln so'm/km ta'mir	30–50% eskirganlik; 30–50% modernizatsiya; 100–200 mln so'm/km	$\geq 50\%$ eskirganlik; $\leq 30\%$ modernizatsiya; $\leq 100$ mln so'm/km
4.	Foydalilik koeffitsiyenti, investitsiya qaytarilishi (%), 1 km uchun ekspluatatsiya xarajatlari	$\geq 1.2$ foydalilik; $\geq 15\%$ qaytarilish; $\leq 35$ mln so'm/km xarajat	1.0–1.2 foydalilik; 10–15% qaytarilish; 35–50 mln so'm/km	$\leq 1.0$ foydalilik; $\leq 10\%$ qaytarilish; $\geq 50$ mln so'm/km
5.	Aholiga xizmat qamrovi, ish o'rni yaratish ko'rsatkichi, transport xodimlari ulushi	$\geq 95\%$ qamrov; $\geq 3$ ta ish o'rni/mln km; $\geq 8\%$ xodimlar ulushi	85–95% qamrov; 1–3 ish o'rni; 5–8% xodimlar ulushi	$\leq 85\%$ qamrov; $\leq 1$ ish o'rni; $\leq 5\%$ xodimlar ulushi
6.	CO2 chiqindisi (tonna-km), ESG ko'rsatkichi, yashil energiyadan foydalanish ulushi	$\leq 5$ t/mln tkm CO2; $\geq 0.7$ ESG indeksi; $\geq 30\%$ yashil energiya	5–10 t/mln tkm CO2; 0.5–0.7 ESG; 15–30% yashil energiya	$\geq 10$ t/mln tkm CO2; $\leq 0.5$ ESG; $\leq 15\%$ yashil energiya
7.	GPS va monitoring tizimlari mavjudligi, avariylar soni, avtomatlashtirilgan tizimlar ulushi	$\geq 85\%$ monitoring qamrovi; $\leq 1/mln$ km avariya; $\geq 60\%$ avtomatlashtirish	60–85% monitoring; 1–3 avariya; 40–60% avtomatlashtirish	$\leq 60\%$ monitoring; $> 3$ avariya; $\leq 40\%$ avtomatlashtirish
8.	Xalqaro tranzit ko'rsatkichi, logistika klasterlarda qatnashish, xizmat turlarining diversifikasiya darajasi	$\geq 0.9$ tranzit indeksi; $\geq 2$ klaster qatnashuvi; $\geq 50\%$ diversifikasiya	0.7–0.9 tranzit; 1–2 klaster; 30–50% diversifikasiya	$\leq 0.7$ tranzit; 0–1 klaster; $\leq 30\%$ diversifikasiya

Transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosiysi yuk aylanmasi bo'yicha Z – score qiymati hisoblanganda natija quyidagicha:

Haqiqiy qiymat -  $X_k = 77600$  млн ткм;

Me'yoriy qiymat -  $X_k^{mey} = 85000$  млн ткм;

Standart og'ish -  $\sigma_k = 5000$  млн ткм;

Vazn koeffitsiyenti -  $w_k = 0.15$ .

$$Z_{score} = \sum_{k=1}^n w_k * \left( \frac{X_k - X_k^{mey}}{\sigma_k} \right) = 0.15 * \frac{77600 - 85000}{5000} = 0.15 * (-1.48) = -0.222,$$

$$Z-score \leq 0$$

bo'lsa ushbu shkalaga ko'ra tizim inqiroz holatda.

<sup>8</sup> O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuk aylanmasi ko'rsatkichi transport tizimining tarmoqlararo bog'lanish, iqtisodiy faoliyatni ta'minlash va logistikadagi oqimlar samaradorligini namoyon qiluvchi bazaviy parametr hisoblanadi. Z-score tahlili orqali ushbu ko'rsatkichni tanqidiy baholash, tizimning umumiy holati, risk darajasi va inqirozga moyillik tendensiyalarini aniqlashda muhim metodik asosdir. Ushbu ma'lumotlar asosida hisoblangan Z-score qiymati – 0.222 ni tashkil qildi. Bu esa,  $Z \leq 0$  diapazoniga to'g'ri kelib, tizimning inqiroz holatida ekanligini anglatadi.

Z-score natijasi orqali aniqlangan holat transport tizimining normal faoliyat chegaralaridan chekkada ekanligini, infratuzilma va xizmatlar faoliyatida tizimli pasayish yuzaga kelayotganini tasdiqlaydi. Yuk aylanmasi hajmi me'yorga nisbatan 9,5% kamaygan, standart og'ishga nisbatan esa 1.48 σ farq. Bunday farq tezkor choralar ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Z-score formulasidagi  $\omega_k = 0.15$  vaznning yuqoriligi yuk aylanmasining umumiy samaradorlik modellari (INE, RCCI, ESG-efficiency) da markaziy o'rin tutishini anglatadi. Bu ko'rsatkichning inqiroz holatiga o'tishi tizimdagি boshqa elementlarning ham bosqichma-bosqich inqirozli trayektoriyaga o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur holatda transport tizimi samaradorligini tiklash uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo'nalishlar tavsiya etiladi:

yuk tashish oqimlarini diversifikatsiya qilish va xalqaro tranzit salohiyatini faollashtirish orqali aylanmani oshirish;

logistika tizimlarining raqamli integratsiyasini joriy etish, ayniqsa intermodal va temir yo'l-avtomobil yo'nalishlarida;

ichki infratuzilmaviy modernizatsiyaga strategik sarmoyalarni jalb qilish, ayniqsa eksport-import markazlari atrofida;

Shuningdek, mazkur model transport sohasini iqtisodiy-iqlimi barqaror rivojlantirish kontekstida ESG ko'rsatkichlar, energiya tejamkorlik va CO<sub>2</sub> chiqindisi bilan bog'liq integral tizimlarga moslashtirilishi mumkin. Umuman, Z-score tahlili transport tizimining iqtisodiy holatini obyektiv, standartlashtirilgan va taqqoslama asosda baholash imkonini yaratadi. Quyida tanlangan ko'rsatkichlarning Z-score natijalari keltirildi (3-jadval).

3-jadval

### Z-score natijalari<sup>9</sup>

Nº	Ko'rsatkichlar	Haqiqiy qiymat	Me'yoriy qiymat	Standart og'ish	Vazn koeffitsiyenti	Z-score
1.	Yuk aylanmasi (mln t.km)	77600	85000	5000	0.15	-0.222
2.	Lokomotiv va vagon parki faolligi (%)	85	90	5	0.13	-0.13
3.	Asosiy vositalarning eskirganlik darajasi (%)	45	30	10	0.12	0.18
4.	Foydalilik koeffitsiyenti	1.05	1.2	0.1	0.13	-0.195
5.	Aholiga xizmat qamrovi (%)	90	95	3	0.12	-0.2
6.	CO <sub>2</sub> chiqindisi (tonna-km)	6	5	1	0.1	0.1
7.	GPS va avtomatlashtirilgan tizimlar (%)	70	85	10	0.13	-0.195
8.	Xalqaro tranzit ko'rsatkichi	0.75	0.9	0.1	0.12	-0.18
	<i>Jami</i>				<b>-0.842</b>	

<sup>9</sup> Muallif hisob-kitobi.

Yuqorida keltirilgan Z-score baholash natijalari transport tizimining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ko'rsatkichlar holatini me'yoriy holatlar bilan taqqoslab, tizimning qay darajada barqaror yoki inqirozli ahvolda ekanini aniqlash imkonini beradi. Hisob-kitoblar natijasida umumiy integral Z-score qiymati  $-0.842$ ga teng bo'lib, mazkur ko'rsatkich normativ shkala bo'yicha inqiroz holati kategoriyasiga to'g'ri keladi. Bu holat transport tizimining samaradorlik yuzasidan tizimli muammolarga duch kelayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishining "**O'zbekiston transport tizimining iqtisodiy samaradorligi va rivojlanish tendensiyalari tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida transport tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari tahlili keltirilib, uning rivojlanish ko'rsatkichlari va mummolari tadqiq etilgan. O'zbekiston iqtisodiyotida transport yukining o'zgarish dinamiksi va YAIM, transport tariflari va iste'mol baholari indekslarining o'zgarishi hamda O'zbekiston Respublikasi transport tannarxi tarkibining o'zgarishi tahlili keltirilgan. Transport tizimining iqtisodiy samaradorlik indeksi baholangan.

O'zbekiston iqtisodiyotida transport sohasining ulushi va undagi samaradorlik ko'rsatkichlari davlatning umumiy iqtisodiy rivojlanish salohiyatini belgilab beruvchi strategik indikatorlardan biri sifatida xizmat qiladi. Xususan, transport sohasidagi faoliyatdan olinadigan daromadlar miqdori va ularning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi, ya'ni iqtisodiyotdagagi transport yuki dinamikasi orqali tarmoqning iqtisodiy faolligi va ishchi resurslardan qay darajada samarali foydalanilayotgani aniqlanadi. Bu ko'rsatkich nafaqat transport tarmoqlarining ichki samaradorligi, balki milliy iqtisodiyotdagagi funksional integratsiya darajasi va logistika infratuzilmasining qay darajada iqtisodiy sikllarga xizmat qilayotganini baholashda ham muhim o'rinn tutadi. Quyida 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotida transport yukining o'zgarish dinamiksi keltirilgan (4-jadval).


4-jadval  
**O'zbekiston iqtisodiyotida transport yukining o'zgarish dinamiksi<sup>10</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Transportda asosiy faoliyatdan tushum, mlrd.so'm	0,084	61831,2	5210,5	0,085	78764,2	6708,7	0,088	97929,3	8578,7	0,092	120862	11105,2	0,088	144868	12808,7
2.	Mamlakat yalpi ichki mahsuloti, mlrd.so'm	0,084	171808	14385,4	0,078	199325	15533,6	0,073	249136	18136,9	0,054	407514	21967,4	0,054	511838	27528,0
3.	Iqtisodiyotning transport yuki	0,084	61831,2	5210,5	0,085	78764,2	6708,7	0,088	97929,3	8578,7	0,092	120862	11105,2	0,088	144868	12808,7

<sup>10</sup> Transport vazirligi ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

Jadvalda qayd etilgan raqamlar tahlil qilinganda, transport sohasining iqtisodiyotdagi ulushi so‘nggi o‘n yillikda muttasil pasayib borgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar 2014–2015-yillarda transport yuki 0,084 darajasini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 0,04 ga tushib qolgan. Bunday pasayishni faqat YAIMning o‘sishi bilan izohlash oddiy bo‘ladi. Aslida, transport sohasida yuzaga kelgan ichki to‘siquvlar va tashkiliy-iqtisodiy samarasizliklar tufayli tarmoqning iqtisodiy faoliyatga ta’sir darajasi susayayotgani kuzatiladi.

Transport sohasining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillardan biri bu – mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM), transport xizmatlari uchun amal qiladigan tariflar darajasi va iste’mol baholari indeksining o‘zgarish dinamikasi hisoblanadi. Quyidagi grafikda 2001–2024-yillar davomida mazkur uch indikatorning o‘zgarishi aks ettirilgan bo‘lib, ularning nisbiy o‘sish sur’atlari orqali transport sohasining iqtisodiyotdagi adaptatsiya qobiliyati va inflaytions fonga moslashuv darajasi baholanishi mumkin (1-rasm).




1-rasm. YAIM, transport tariflari va iste’mol baholari indekslarining o‘zgarishi<sup>11</sup>

2001–2024-yillar davomida transport tarmoqlarining yuk aylanmasi dinamikasi va YAIM o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi nomutanosiblik transport tizimining iqtisodiy transformatsiya jarayonlariga moslashuvchanligidagi tuzilmaviy muammolarni ko‘rsatmoqda. Xususan, YAIM hajmi 2001-yildagi 504,3 mldn so‘mdan 2024-yilda 90543,5 mldn so‘mgacha ko‘tarilgan holda 180 barobar o‘sgan. Bu iqtisodiyotdagi umumi kengayishni ko‘rsatadi. Ammo shu davrda temir yo‘l transporti 522,3 mln t-kmdan 1111,8 mln t-kmgacha yetib, 2,1 barobar o‘sgani transport tizimining iqtisodiy o‘sish sur’atlariga nisbatan mutanosib rivojlanmaganini ko‘rsatadi.

Transport xizmatlari tannarxi tarkibidagi o‘zgarishlar 2003–2024-yillar mobaynida xarajatlar strukturasidagi chuqur dinamik o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. Grafikda aniq ko‘rinib turibdiki, tannarx tarkibida “boshqa xarajatlar” ulushi muttasil o‘sib borib, 2024-yilga kelib 52,8%ga yetgan, ya’ni umumi xarajatlarning yarmidan ortig‘ini tashkil etgan (2-rasm). Bu holat transport tizimida xarajatlar tuzilishidagi nomutanosiblik va shaffoflikning yetishmasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, amortizatsiya xarajatlarining ulushi 2003-yildagi 39,4%dan 2024-yilda 15,4%gacha pasaygan, bu esa asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining susayganini

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

anglatadi. Ish haqi xarajatlari 8–12% oralig‘ida nisbatan barqaror saqlangan bo‘lsa-da, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarining to‘liq ishga solinmayotgani ehtimolini bildirishi mumkin. Energiya xarajatlari esa 2003-yilda 11,8% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 16,9%gacha o’sgan. Shu orqali transport tannarxi tarkibida resurslar taqsimoti va xarajatlar dinamikasi orqali tizim samaradorligini tanqidiy baholash imkoni paydo bo‘ladi.



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi transport tannarxi tarkibining o‘zgarishi<sup>12</sup>, %**

2003–2024-yillar davomida transport xizmatlari tannarxi tarkibining tuzilishida yuz bergan o‘zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni shakllantiruvchi resurslar taqsimotidagi mutanosibliklitsizlikni yaqqol namoyon qiladi. Boshqa xarajatlar ulushining 2024-yilga kelib 52,8%gacha ortishi xarajatlarning shaffof emas va tuzilma bo‘yicha samarasiz bo‘lib borayotganini anglatadi. Bu toifada aniq tasniflanmagan xarajatlar ustuvorlik kasb etib, tannarxda qiymat zanjiri bo‘yicha asosiy vazifalarning ulushini pasaytirmoqda. Moddiy xarajatlar va amortizatsiya ko‘rsatkichlari esa nisbatan barqaror saqlanib kelayotgan bo‘lsa-da, 2010-yildan boshlab ularning ulushi keskin kamaygan, bu esa transport vositalariga sarflanayotgan investitsiya faolligining susayganini ko‘rsatadi. Ish haqi xarajatlari 2024-yilda 16,3%ni tashkil etgan bo‘lib, mehnat unumdorligi va xizmat sifati bilan bog‘liq xarajatlar yetarli darajada ta’milanmayotganini ko‘rsatadi.

Alovida transport turlari – xususan, temir yo‘l va avtomobil transportining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda umumiyligi va noaniq ko‘rsatkichlardan foydalanish samarali natijalar bermaydi. Bunday sharoitda sohaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, normallashtirilgan va o‘zaro integrallashuvi mumkin bo‘lgan baholash ko‘rsatkichlari tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyada transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun ko‘rsatkichlar tanlab olindi (5-jadval).

Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholashda tanlab olingan ko‘rsatkichlar tizimi sohaning ko‘p qirrali xususiyatini to‘liq aks ettrishga xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar transport faoliyatining nafaqat tijorat samaradorligini,

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

balki infratuzilmaviy sifatini, bozordagi raqobatbardoshlik darajasini, ijtimoiy foydalilik chegaralarini va ekologik ta'sirini ham keng qamrab oladi.

5-jadval

### Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini baholash uchun tanlab olingan ko'rsatkichlar tizimi va ularning tavsifi<sup>13</sup>

Nº	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	Ahamiyati
<b>Iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar</b>			
1.	1 kmga to‘g‘ri keladigan tannarx	so‘m/tonna-km	Tashish jarayonida sarf bo‘ladigan xarajatlar samaradorligini ko’rsatadi
2.	Foyda/xarjatlar koeffitsiyenti	Nisbat ( $>1$ -samarali)	Transport operatsiyalarining iqtisodiy foydali yoki zararli ekanligini baholaydi
3.	Yuk tashishda sof foyda	mlrd so‘m	Tashishdan olinadigan real foyda miqdori
4.	1 tonna yuk tashishga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi	kg/tonna-km yoki kVt/t.km	Energiya samaradorligini belgilaydi
5.	Tarmoqda kapital qo‘yilmalarining qaytarilishi	%	Investitsiya kiritishning samaradorligini ko’rsatadi
6.	Yuk tashish qobiliyati/real yuk aylanmasi	%	Infratuzilmaning foydalanish darajasini ko’rsatadi
<b>Tashkiliy-infratuzilmaviy ko'rsatkichlar</b>			
7.	Yo‘l tarmog‘idan foydalanish koeffitsiyenti	%	Yo‘l va transport vositalari faoliyat samaradorligini ko’rsatadi
8.	Yuk aylanmasi (tonna-km)	mln tonna-km	Iqtisodiy faollik va tashish hajmi dinamikasi
9.	Yo‘lovchi aylanmasi (pasajir-km)	mln pas-km	Aholiga xizmat ko‘rsatish darajasini aks ettiradi
10.	Transport vositalarining ishlab chiqarish quvvati	tonna/reys yokivagon/sutka	Avtoparkning ishlab chiqarishga xos resurs salohiyati
11.	Reysning o‘rtacha davomiyligi	soat/sutka	Samarasiz logistika sababli yo‘qotishni ko’rsatadi
12.	Yo‘llarning texnikaviy tayyorlik darajasi	%	Infratuzilmaning holatini aks ettiradi
<b>Raqobatbardoshlik va ijtimoiy ta’sir ko'rsatkichlari</b>			
13.	Xizmat sifatini baholovchi ball	1–5 ball	Mijozlar fikri asosida samaradorlik darajasini ko’rsatadi
14.	Mijozlarning xizmatdan qoniqish darjasи	%	Bozorda transportning o‘rnini baholashda muhim
15.	Bojxonadagi kechikishlar hissasi	%	Xalqaro logistika samaradorligiga ta’sir etuvchi omil
16.	Xizmat tezligi – “vaqt/masofa” indeksi	soat/100 km	Yuk yetib borishdagi tezkorlik darajasi
17.	Xavfsizlik va ekologik yo‘qotishlar	soniyadagi avariya soni, SO <sub>2</sub> kg/t.km	Barqaror rivojlanishning indikatorlari
18.	“Yashil logistika” ulushi (ESG ko'rsatkichlari)	%	Ekologik samaradorlikni ko‘rsatuvchi zamonaliviy indikator

Alovida ko'rsatkichlar asosida transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonida ularning turli o'Ichov birliklarida ekani tahliliy jihatdan jiddiy muammolar tug‘diradi. Ya’ni, tannarx so‘mda, yuk aylanmasi tonna-kmda, xizmat ko‘rsatish tezligi vaqt birliklarida, ekologik chiqindilar esa kilogramm yoki SO<sub>2</sub>/km birliklarida ifodalanadi. Bunday holatda, ko'rsatkichlar o'rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirish yoki ularning umumiy iqtisodiy ta’sirini baholash imkoniyati yo‘qoladi. Shu sababli normallashtirish usuli joriy etiladi – ya’ni barcha ko'rsatkichlar 0 dan

<sup>13</sup> O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

1 gacha bo‘lgan yagona nisbiy shkalaga o‘tkaziladi. Bu esa ularni teng va adolatli asosda baholash, integral indekslarni shakllantirish hamda transport tizimlarining farqli jihatlarini teran tahlil qilish imkonini yaratadi. Quyida ana shu maqsadda qo‘llaniladigan normallashtirilgan qiymatni aniqlash formulasi keltirilgan:

$$K_i = \frac{X_i}{X_{max}} \quad (1)$$

Bu yerda:

$K_i$  –  $i$  – o‘rindagi ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati;

$X_i$  – O‘zbekistonidagi mazkur ko‘rsatkichning haqiqiy qiymati;

$X_{max}$  – shu ko‘rsatkich bo‘yicha eng yuqori (me’yoriy yoki yetakchi davlatdagi qiymati).

Agar ko‘rsatkich kam bo‘lishi samaradorlikka ijobjiy ta’sir etsa (masalan, tannarx, chiqindi miqdori, ekspluatatsion xarajatlar), u holda formula invers qilinadi:

$$K_i = \frac{X_{min}}{X_i} \quad (2)$$

Bu yondashuv transport turlari o‘rtasidagi samaradorlikni aniq baholash, ularning muvaffaqiyat va zaif jihatlarini ko‘rsatish hamda kompleks baholash indekslarini shakllantirish uchun zamin yaratadi. Normallashtirilgan qiymatlar orqali amaliy tahlilda transport sohasining qaysi ko‘rsatkichlarda yetishmayotgani yoki resurs samaradorligi past ekanini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Transport tizimi samaradorligini baholashda faqatgina ko‘rsatkichlarni normallashtirish yetarli emas, balki ularning har biri umumiyligi integral natijaga qanday ta’sir etishini hisobga olish talab etiladi. Ayrim ko‘rsatkichlar (masalan, foyda-xarajatlar koeffitsiyenti, yuk aylanmasi) transport tizimi samaradorligini aniqlovchi asosiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etsa, boshqalari (jumladan, ijtimoiy yoki ekologik ta’sir ko‘rsatkichlari) samaradorlikning umumiyligi modelini to‘ldiruvchi yoki indirekt xususiyatda bo‘ladi.

